



2-TOM, 6-SON

DUNYO MIQIYOSIDAGI QURG‘OQCHILIKNING OQIBATLARINI
BARTARAF ETISH

D. A. Otamuradova

Termiz muhandislik-texnologiya instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Tadqiqotlarga qaraganda, so‘ngi 20 yil ichida O‘zbekistonda suvga bo‘lgan talab sezilarli oshadi va mavjud suv resurslari keskin kamayishi kutilmoqda, natijada suv tanqisligini 5 barobargacha oshiradi. So‘ngra O‘zbekiston suv tanqisligi bo‘yicha qizil hududlar qatoriga kirishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: Suv resurslari, Sirdaryo, Surxondaryo, transchegaraviy daryolar, Orol fojiasi, chuchuk suv, yer ustki oqar suv manbalari.

Aholining o‘sishi va suv iste’moli ko‘payishi, iqlim o‘zgarishi, yog‘ingarchilikning kamayishi, shuningdek, suv resurslaridan irratsional foydalanish ortidan yurtimizda jiddiy ekologik muammolar va suv tanqisligi yuzaga kelmoqda. Hozirda O‘zbekistonda yuz berayotgan suv taqchilligi ikki yo‘nalishda: aholi ehtiyojlari uchun toza ichimlik suvi yetarli emasligi, shuningdek, qishloq xo‘jaligini suv resurslari bilan ta’minlanishida muammolar yuzaga kelmoqda.

Jahon tabiiy resurslar institute - WRI (World Resources Institute) va Britaniyaning EIU (Economist Intelligence Unit) tashkiloti tadqiqotlariga ko‘ra, 2040-yilga borib, suv tanqisligi kuzaatilishi taxmin qilinayotgan 33 ta davlatlarning orasida Markaziy Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston ham bor.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, Respublikamiz yaqin kelajakda suv tanqisligi 7 mlrd. kub metr, 2050-yillarda esa, 12-13 mlrd. kub metr bo‘lishi taxmin qilinmoqda. Xususan qiymati \$1000 bo‘lgan yalpi ichki mahsulot yaratish uchun O‘zbekistonda Rossiyaga qaraganda 11,6, Yaponiyadan 13,2 va Germaniyadan 24,8 barvar ko‘p suv sarflanmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari, ayniqsa Sirdaryo va Surxondaryo quyi oqimida yashaydigan aholi bir qancha yillardan buyon suv yetishmaslidan va buning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlaridan jabr chekmoqda. O‘zbekistonning sug‘orish maydonlari (4,3 mln.gektar), qishloq aholisi soni (16 mln. kishidan ortiq) va aholining zichlik darajasi (54,6 kishi/km², kishi) aynan shu yerda. Hozirgi paytda ZDMSXK IAM tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra (2003), Orol fojiasining oqibatida O‘zbekiston ko‘rgan bevosita va bilvosita ijtimoiy-iqtisodiy zarar yiliga 144 million AQSh dollarini tashkil etgan edi. (aholi jon boshiga hisoblaganda taxminan 5,7 dollar yoki YaIMning 1,8 % iga to‘g‘ri keladi).



2-TOM, 6-SON

Markaziy Osiyodagi transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda quyidagi muammolar turibdi:

- irrigatsiya tizimining yomonlashayotgani, samarasiz boshqaruv va infratuzilmani ta'minlash xarajatlarining keskin o'sishi;
- suvning notug'ri va nomutanosib taqsimlanishi oqibatda suvning isrof qilinayotgani va suv tanqisligining paydo bo'lishi;

O'zbekistonda har bir kishi 1 sutkada **2-3 litr** chuchuk suv ichadi. Gidrosferaning faqatgina **2,5 %ini** chuchuk suv tashkil qiladi. qishloq xo'jaligining ayrim sohalaridagi suv sarfi qiyosiy hisoblarga qaraganda:

1 tonna bug'doy yetishtirish uchun **1,5 tonna**;

1 tonna sholi uchun 4-5 ming tonna;

1 tonna paxta yetishtirishga **10 ming tonna** suv sarflanadi.

O'zbekiston Respublikasi suv resurslarining asosiy yer ustki oqar suv manbalari Amudaryo va Sirdaryo havzalari hisoblanadi, ularning jami yillik oqimi $115,6 \text{ km}^3$ ni tashkil qiladi, ulardan Amudaryo havzasida $78,5 \text{ km}^3$, Sirdaryo havzasida esa - $37,1 \text{ km}^3$ oqim vujudga keladi. Amudaryo va Sirdaryo havzalari ko'paygan taqdirda ham, suv hajmi endigi talabni qondirolmaydi. Bu vaqrda tanqislik 8% ni tashkil etadi, xuddi shu zaxirada esa 15% ni. Ammo oqim kamaysa, zarar miqdori 33% ga yetadi.

Rasmiy ma'lumotlarga sosan, shaharlarning 88% ga yaqini va qishloq aholisining 79% i quvurlarda uzatiladigan suvdan foydalanish imkoniyatiga ega. Afsuski, iste'molchilarning atigi 17% i doimiy foydalanish imkoniyatiga ega va 65% iste'molchilar esa kuniga 6 soatdan kam vaqt davomida suv olishadi.

Ayni vaqtida Davlatimizda 97 ta yer osti suv konlari aniqlangan bo'lib, ularning umumi suv hajmi 63,9 mln. kub m/sutka (umumi suv resurslarining 25%) tashkil qiladi, shundan sho'rlik darajasi 1 g/l gacha (chuchuk-1 g/l gacha) bo'lgan suvlari 25,8 mln kub m/sut (40%)ni tashkil qiladi.

Yer osti chuchuk suvlari zaxiralarimiz respublika bo'yicha bir xil taqsimlanmagan bo'lib ularning miqdorini 1-jadvaldan bilib olishingiz mumkin.

1-jadval

Viloyatlar	Toshken	Samarqand	Surxondaryo	Namangan	Andijon	Farg'onaga
Suv resurslari (%da)	28%	14	13	13	12	8



2-TOM, 6-SON

Ushbu viloyatlar ichimlik suv ta'minotining 67 foizini tashkil etadi

Suvdan unumli foydalanish darajasini o'rganish maqsadida - o'rtacha 1 hektar yerni sug'orishga sarflangan suv miqdori va o'rtacha 1 m³ suv hisobiga yetishtirilgan mahsulot hajmini anglatuvchi ko'rsatkichlar asosida hududlarda suvdan foydalanish samaradorligi indeksi - SSI hisoblab chiqildi.

**2018-2021 yillarda suvdan eng samarali foydalangan viloyatlar haqida
2-jadvalda keltirilgan.**

2-jadval

N	Guruhi	Viloyatlar	SSI indeksi	Erishilgan natija
1	I guruh	Andijon	0,816	Yuqori samaradorlikka erishgan
		Samarqand	0,780	Yuqori samaradorlikka erishgan
2	II guruh	Toshken	0,701	Sug'orishda avvalgi yildagiga nisbatan ko'p suv sarflangan
		Jizzax	0,650	Barqaror o'sishga erishilgan
		Navoiy	0,630	SSI indeksi oldingi yillardagiga nisbatan yuqorilagan
		Namangan	0,610	SSI indeksi oldingi yillardagiga nisbatan yuqorilagan



2-TOM, 6-SON

		Farg'ona	0,605	SSI indeksi o'zgarishsiz qolgan
3	III guruh	Qashqadary	0,462	SSI indeksi avvalgiyildagiga nisbatan ko'tarilgan
		Xorazm	0,455	SSI indeksi avvalgi yildagiga nisbatan ko'tarilgan
		Surxondaryo	0,430	SSI indeksi avvalgiyildagiga nisbatan ko'tarilgan

O'zbekistonda suvdan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonuni bu haqida huquqiy daliliy hujjat hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ekologik omil sifatida tuproqning turli darajada sho'ranganligining paxta, g`alla hosildorligiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: 1. Agrar sohadagi ekologik muammolarni oldini olish, iqtisodiy samaradorlikni yahshilash uchun tuprog`i o'rtacha va kuchli sho'rangan Termiz, Angor, SHerobod, Muzrabod tumanlari dalalarida sho'r yuvish tadbirlarini tashkil etish;

Atrof-muhitning ifloslanishi monitoringiga ko'ra, yer osti suvlarining asosiy ifloslantiruvchisi sanoat, qishloq xo'jaligi va kommunal korxonalardir.

Yer osti suvlarini muhofazasini kuchaytirish va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilib borilmoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, 2040 yillarga kelib Amudaryo va Sirdaryo suvlarining kamayishi bilan O'zbekistonda suv resurslari taqchilligi 33% ga yetishi mumkin.



2-ТОМ, 6-СОН

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Отамуродова, Дилдора. "ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИНИНГ АГРАР СОҲА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ (СУРХОНДАРЁ МИСОЛИДА)." Iqtisodiyot va ta'lif 24.5 (2023): 399-405.
2. Отамуродова, Д. А. (2023). Сув омборлари ва уларнинг сув билан таъминланганлигини агроэкоиқтисодий муаммолари (Сурхондарё вилояти мисолида). *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 746-753.
3. Отамуродова, Д. А. (2023). АГРАР СОҲА ИҚТИСОДИЁТИГА БИОХИЛМА-ХИЛЛИК ВА ЭКОЛОГИК ОМИЛЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. *International scientific journal of Biruni*, 2(2), 151-159.
4. Kimyoviy ekologiya (O'quv qo'llanma) A.X R.X Allaberdiyev, Kuchkarov, A.D Karimova, A.D Karimova, F.X Allaberdiyev, B.T Jabborov, A.N To'rabayev
5. X.X.Zokirov “Surxondaryo tabiatи va ekologiyasi”. O'quv qo'llanma. Termiz-2021. 72-108 b
6. <https://inter-publishing.com/index.php/IJHSMS/article/view/2097/1816>
7. <https://kun.uz/uz/15165753>
8. <http://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/302>

